Astronomiya yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun seminar-trening o’tkazildi


2021-yil 16-18-mart kunlari O’zR FA Astronomiya instituti tomonidan “Mirzo Ulug’bek ilmiy merosining zamonaviy astronomiya fani va ta’limi ravnaqidagi roli” mavzusida respublikamiz oliy o’quv yurtlaridagi astronomiya yo’nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun seminar-trening o’tkazildi.





Bu kabi seminarlar FA Astronomiya instituti tomonidan muntazam o’tkazilishi an’anaga aylanib qolgan. Navbatdagi seminar mavjud pandemik vaziyatni hisobga olgan holda onlayn tarzda o’tkazildi. Seminar-treningda O’zbekiston Milliy universiteti, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Andijon, Farg’ona, Qarshi, Samarqand hamda Termiz davlat universitetlari, Nukus, Qo’qon, Jizzax, Chirchiq davlat pedagogika institutlaridan 200 ga yaqin iqtidorli talaba va magistrlar ishtirok etdilar.

Seminar-treningni Institut direktori, akademik Sh.A. Egamberdiev ochib, talabalarni qutladi va seminar ishida muvaffaqiyatlar tiladi. Dastlab, qatnashchilarga “Mirzo Ulug’bek vorislari” filmi namoyish etildi. Shundan so’ng ma’ruzalarga o’tildi.



Seminar-trening davomida FA Astronomiya institutining yetakchi mutaxassis olimlari va yosh tadqiqotchilari talabalarga astronomiya, nazariy va amaliy astrofizika bo'yicha ma'ruzalar o'qidilar. Jumladan, "Oy taqvimi", "Maydanak observatoriyasi", "Ekzosayyoralar", "O'ta yangi yulduzlar", "Qora o'ralar", "Qorong'i modda va qorong'i energiya" kabi bir qator qiziqarli ma'ruzalar talabalar e'tiboriga havola etildi hamda ularni astronomiya fani sohasidagi oxirgi yangiliklar bilan tanishtirdilar. Bundan tashqari, Institutning yosh olimlari tomonidan Quyosh dog'larini kuzatish bo'yicha onlayn tarzda amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Ishtirokchilar Astronomiya institutida, Maydanak observatoriyasida hamda Mirzo Ulug'bek maktabida o'rnatilgan teleskoplar haqida ma'lumotlar bilan tanishtirildi, bunda, ayniqsa, Maydanak observatoriyasidan to'g'ridan-to'g'ri translyatsiya jarayoni ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otdi va ularda katta taassurot qoldirdi.



Shuningdek, ishtirokchilar o’zlarini qiziqtirgan savollarga FA Astronomiya institutining yetakchi mutaxassis olimlari va yosh tadqiqotchilaridan javoblar olishdi.